


**Hurmatli saytimiz mehmonlari!**  
**Sizning diqqatingizga “Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ ning rasmiy sayti havola qilinmoqda. Sizga yordam ko’rinishida saytimiz va u bilan ishlash to’g’risida qisqacha ma’lumot bermoqchimiz.**



**Sayt gorizontaal va vertikal menyulardan tashkil topgan:**

**Birinchi gorizontaal menyu (yordamchi):**



- Bosh (asosiy) sahifa belgisi. Bu rasm ko’rinishdagi belgini bosganda saytning bosh sahifasiga o’tiladi.

**YORDAM** – sayt bilan ishlash to’g’risida yordam (ma’lumot) olish

**SAVOL-JAVOB** – saytning «Teskari aloqa» funksiyalarini bajaruvchi qismi, ya’ni saytga tashrif buyuruvchilarning tez-tez beriladigan savollariga “Buxoro HETK” AJ rasmiy vakillarining javoblari aks ettiriladigan qismi.

**KONTAKTLAR**–“Buxoro HETK” AJ to’g’risida (manzili, boshlanish uchun telefon raqamlari, ish tartibi to’g’risida va shunga o’xshash ma’lumotlar

**POCHTA** – “Buxoro HETK” AJ ga qarashli korporativ pochtaga o’tish

- imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun qo’shimcha qulayliklar

- saytning soddalashtirilgan mobil versiyasi

**O’ZB, UZB, RUS, ENG** – saytning bir tilidan ikkinchi tiliga o’tish uchun xizmat qiladigan belgilar. Sayt 3 (uch) tilda ya’ni o’zbek (lotin va kirill alifbolarida), rus va ingliz tillarida faoliyat ko’rsatadi.

**Ikkinchi gorizontaal menyu (asosiy)**

**JAMIYAT HAQIDA** – “Buxoro HETK” AJ to’g’risida ma’lumotlar

**AKSIYADORLAR UCHUN** - “Buxoro HETK” AJ aksiyadorlari uchun ma’lumotlar

**FAOLIYAT**- jamiyatning ishlab chiqarish ko’rsatkichlari, AJ faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlar

**INTERAKTIV XIZMATLAR** – Davlat organlari tomonidan ko’rsatiladigan interaktiv xizmatlar to’g’risida ma’lumotlar va shu xizmatlardan foydalanish imkoniyati

**ME’YORIY BAZA** – Normativ huquqiy ma’lumotlar

**MATBUOT MARKAZI** – Jamiyatning o’zida va jamiyatning yuqori tashkiloti bo’lgan “O’zbekenergo” AJ da o’tkaziladigan tadbirlar to’g’risidagi axborotlar.

Saytning ikki gorizontaal menyu o’rtasida jamiyat logotipi, uch tilda yozilgan jamiyat nomi, ishonch telefoni raqami va O’zR Davlat ramzlari to’g’risidagi ma’lumotlardan iborat axborot qismi joylashgan.

Asosiy gorizontaal menyuning pastki qismida 5 (besh) ta elektroenergetikaga oid ob’yektlarning fotosuratlaridan tashkil topgan fotoslayder aks ettirilgan.

Fotoslayderning tagida Buxoro viloyatining tumanlar kesimidagi interaktiv xaritasi joylashgan. Xaritadan Siz qiziqtirgan tumanni tanlaganingizda ushbu tuman elektr ta'minot korxonasi haqidagi, ya'ni ETK rahbari, manzili, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ish tartibi kabi ma'lumotlarni olishingiz mumkin.

Interaktiv xaritaning pastki qismida esa sayt moderator tomonidan qo'yilgan, sana (vaqt) jihatidan eng keying 3 (uch) ta sayt yozuvlari (yangiliklari) joylashgan. Qulaylik uchun ushbu 3 ta yozuvlar (yangiliklar) to'laqonli ochilgan shaklda aks ettirilgan.

### **Fotoslayderning pastki qismida quyidagilar joylashgan:**

**SHAXSIY KABINETLAR** – saytning ushbu qismidan elektr energiyasidan foydalanuvchi maishiy va yuridik iste'molchilar mos ravishda o'zlarining “Shaxsiy kabinet”lariga o'tishlari mumkin.

**Elektr energiyasi uchun onlayn to'lov** – saytning ushbu qismidan iste'molchilar elektron to'lovlarni tizimi servislari orqali o'zlarining foydalangan elektr energiyasi uchun onlayn to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

**IZLASH...** - sayt bo'yicha ishlash imkoniyati.

### **Vertikal menyular:**

**ARXIV** – yil oylari bo'yicha yozuvlar (yangiliklar) arxivi

**SAHIFALAR** – o'ziga xos sayt xaritasi, bu yerda sayt rubrikalari va ularning har biridagi yozuvlar (yangiliklar) soni to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

**YOZUVLAR** – sana (vaqt) jihatidan eng keyin saytga qo'yilgan yozuvlar (yangiliklar) haqidagi ma'lumotlar.

### **Vertikal menyularning pastida esa quyidagilar joylashgan:**

**“Bizning saytimiz Sizga yoqdimi?”** degan savoldan tashkil topgan, saytga tashrif buyuruvchilar o'rtasidagi so'rovnoma qismi. Bu yerda sayt tomonidan taklif qilinayotgan javob variantlaridan birini tanlab so'rovnoma savoliga ovoz berish mumkin. Ovoz berish amalga oshirilgandan so'ng so'rovnoma javoblari natijasi chiqadi.

**Kalendar** – grigorian usulidagi calendar, ushbu kalendarida istalgan sanani tanlab, agar shu sanada saytga yozuvlar (yangiliklar) kiritilgan bo'lsa ushbu yozuvlar (yangiliklar) arxivini ko'rish imkoniyati bor.

### **Saytning eng pastki qismida saytdan foydalanuvchilar uchun 3 (uch) ta axborot ustunlari mavjud:**

**Birinchi axborot ustunida** «Buxoro HETK» AJ to'g'risidagi ma'lumotlar: jamiyat nomi, manzili, telefon raqamlari, elektron pochta manzillari, jamiyat joylashgan xarita kabi ma'lumotlar joylashgan.

**Ikkinchi axborot ustunida** Uy-joy kommunal xo'jaliklar xizmatlari tariflari aks ettirilgan informer, valyuta kurslari to'g'risidagi informer, jamiyat saytiga bir kunda va oy davomida tashrif buyurganlar to'g'risidagi informer mavjud. Bundan tashqari bu ustunda **31 dekabr 2013 yildagi O'zR VMQ №355, 2 iyul 2014 yildagi O'zR VMQ №176** larga havolalar va **“O'zinfokom” DUK** ning jamiyat saytining axborot xavfsizligi holati to'g'risidagi xulosasi aks ettirilgan. Ushbu ustunda jamiyat sayti qachon oxirgi marta yangilangani to'g'risidagi axborot ham joylashtirilgan.

**Uchunchi axborot ustunida** Davlat organlari saytlariga foydali havolalar keltilgan.

**Korporativ saytimizga tashrif buyurganingizdan biz doimo xursandmiz!**